




UO'K: 632-52

SOYA EKINIDA UCHRAYDIGAN SHIRALARGA QARSHI PREPARATLARNING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

Xolliyev Asamiddin Turayevich 
qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

Xoligova Marjona Abduhalimovna 
doktorant
Toshkent Davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent viloyati sharoitida soya ekinida uchraydigan shiralar zararkunandasiga qarshi qo'llanilgan kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqotlar davomida Mekar, Asetaplan 200 SL va Agroplan neo preparatlarining turli me'yorlarda qo'llanishi natijasida zararkunandalar sonining kamayishi hamda preparatlarning biologik samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlangan. Olingan natijalar asosida soya agrobiotsenozida shiralarni samarali boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soya, shiralar, zararkunanda, biologik samaradorlik, kimyoviy preparatlar, agrobiotsenoz, hosildorlik.

Abstract. This article presents the results of studies on the biological efficacy of chemical preparations used against aphids infesting soybean crops under the conditions of the Tashkent region. The effects of Mekar, Asetaplan 200 SL, and Agroplan neo applied at different rates on aphid population reduction were evaluated. Based on the obtained results, recommendations were developed for the effective management of aphids in soybean agrobiocenosis.

Keywords: soybean, aphids, pest, biological efficacy, chemical preparations, agrobiocenosis, yield.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследований биологической эффективности химических препаратов против тлей, распространённых на посевах сои в условиях Ташкентской области. В ходе исследований изучено влияние препаратов Mekar, Asetaplan 200 SL и Agroplan neo, применённых в различных нормах расхода, на снижение численности вредителей. На основе полученных результатов разработаны рекомендации по эффективной защите сои от тлей в агробиоценозе.

Ключевые слова: соя, тля, вредитель, биологическая эффективность, химические препараты, агробиоценоз, урожайность.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

KIRISH

Soya ekinida uchraydigan so'ruvchi zararkunandalarga qarshi kimyoviy preparatlarning keng ko'lamda qo'llanilishi ushbu agrobiotsenozdagi tabiiy entomofaglar populyatsiyasi sonining keskin o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Natijada foydali organizmlarning kamayishi zararkunandalar populyatsiyasining qayta ko'payishiga hamda agroekotizimdagi biologik muvozanatning buzilishiga sabab bo'ladi. Shu sababli soya o'simligi agrobiotsenozida zararkunandalarga qarshi kurash choralarini olib borishda tabiiy kushandalar - entomofaglar faoliyatiga salbiy ta'siri minimal bo'lgan selektiv preparatlarni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday yondashuv zararkunandalar sonini nazorat qilish bilan birga agroekotizimning ekologik barqarorligini saqlashga ham xizmat qiladi.

Soya ekinida o'simlik shiralariга qarshi tizimli ta'sir qiluvchi preparatlarni qo'llash va ularning biologik samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator kimyoviy preparatlarni sinovdan o'tkazildi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

O'simlik shiralari bilan zararlangan o'simliklarga kimyoviy preparatlarni sepish motorli qo'l apparatida gektariga 200 litr ishchi suyuqligi sarflagan holda, kunning ikkinchi yarmida havo harorati 25 - 28°C bo'lganda o'tkazildi. Tajribalar Toshkent viloyati, Qibray tumani, O'simliklar karantini va himoyasi ITI ning tajriba xo'jaligida soyaning "Nafis" navida Mekar, 18 g/l m.em. (0,4-0,5 l/ga), Asetaplan 200 SL, 20% s.e.k. (0,2-0,3 kg/ga) hamda andoza variantida Agroplan neo 20% s.e.k. (0,2 kg/ga) preparatlarini kichik dala tajribasida sinovdan o'tkazildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, soya ekinida uchraydigan shiralarga qarshi Mekar 18 g/l em.k. preparatini 0,4-0,5 l/ga sarf-me'yorda qo'llanilganda nazoratga nisbatan biologik samaradorlik 3 hisob kunida 79,2-81,8% ni tashkil etgan bo'lsa, 21-kunga kelib esa, samaradorlik 95,7-100% ni namoyon etdi.

Asetaplan 200 SL, 20% s.e.k. preparatini 0,2-0,3 kg/ga sarf-me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda, biologik samaradorlik nazoratga nisbatan 3 hisob kunida 80,7-83,6% ni namoyon etib, ushbu ko'rsatkichlar 21-kunga kelib esa, samaradorlik 91,0-100% ni tashkil etdi. Andoza variantida esa Agroplan neo 20% s.e.k. preparatini 0,2 kg/ga sarf-me'yorda qo'llanilganda nazoratga nisbatan biologik samaradorlik 3 hisob kunida 82,5% ni tashkil etgan bo'lsa, 21-kunga kelib esa, samaradorlik 97,5% ni namoyon etdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, soya ekinida uchraydigan shiralarga qarshi Mekar 18 g/l em.k. preparatini 0,5 l/ga sarf-me'yorda qo'llanilganda nazoratga nisbatan biologik samaradorlik 3 hisob kunida 83,2% ni tashkil etgan bo'lsa, 21-kunga kelib esa, samaradorlik 94,5% ni namoyon etdi.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Asetaplan 200 SL, 20% s.e.k. preparatini 0,3 kg/ga sarf-me'yorda qo'llanilgan variantlarda, biologik samaradorlik nazoratga nisbatan 3 hisob kunida 86,2% ni namoyon etib, ushbu ko'rsatkich 21-kunga kelib esa, samaradorlik 91,0-96,3% ni tashkil etdi. Andoza variantida esa Agroplan neo 20% s.e.k. preparatini 0,2 kg/ga sarf-me'yorda qo'llanilganda nazoratga nisbatan biologik samaradorlik 3 hisob kunida 82,8% ni tashkil etgan bo'lsa, 21-kunga kelib esa, samaradorlik 95,1% ni namoyon etdi.

1-jadval

Soya ekinida uchraydigan shiralarga qarshi preparatlarning biologik samaradorligi

(Toshkent viloyati, Qibray tumani, O'simliklar karantini va himoyasi ITI ning tajriba xo'jaligida soyaning "Nafis" navi, 2022-2024-yy)

№	Tajriba variantlari	Preparatlarning miqdori l/ga	Bir bargdagi shiralarning o'rtacha soni, donada				Biologik samaradorlik, %				
			Dori sepilguncha	Dori sepilgandan keyingi kunlarda							
				3	7	14	21	3	7	14	21
1.	Mekar, 18 g/l m.em.	0,4	13,3	2,9	2,4	1,6	0,7	79,2	83,7	89,6	95,7
		0,5	14,2	2,7	2,2	1,4	0,0	81,8	86,1	91,5	100,0
2.	Asetaplan 200 SL, 20% s.e.k.	0,2	11,9	2,4	2,0	1,7	1,3	80,7	84,8	87,7	91,0
		0,3	12,8	2,2	1,5	1,3	0,0	83,6	89,5	91,2	100,0
3.	Agroplan neo 20% s.e.k. Andoza	0,2	13,6	2,5	1,8	1,2	0,4	82,5	88,1	92,4	97,6
4.	Nazorat (dorisiz)	-	12,4	13,0	13,8	14,4	15,1	-	-	-	-

EKF₀₅= 2,9 3,4

XULOSA

Soya ekinida uchraydigan shiralarga qarshi Mekar 18 g/l em.k. preparatini 0,4-0,5 l/ga sarf-me'yorda qo'llanilganda nazoratga nisbatan biologik samaradorlik 3 hisob kunida 79,2-81,8% ni tashkil etgan bo'lsa, 21-kunga kelib esa, samaradorlik



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

95,7-100% ni namoyon etdi. Asetaplan 200 SL, 20% s.e.k. preparatini 0,2-0,3 kg/ga sarf-me'yordalarda qo'llanilgan variantlarda, biologik samaradorlik nazoratga nisbatan 3 hisob kunida 80,7-83,6% ni namoyon etib, ushbu ko'rsatkichlar 21-kunga kelib esa, samaradorlik 91,0-100% ni tashkil etdi. Andoza variantida esa Agroplan neo 20% s.e.k. preparatini 0,2 kg/ga sarf-me'yorda qo'llanilganda nazoratga nisbatan biologik samaradorlik 3 hisob kunida 82,5% ni tashkil etgan bo'lsa, 21-kunga kelib esa, samaradorlik 97,5% ni tashkil etdi.

ADABIYOTLAR

1. Алимджанов Р.А. – Насекомые, повреждающие, бобовые культуры. Ўз СССР. Фан . -Ташкент.-1968.- С.54-61.
2. Аманов Ш. Дусманов С. Вредная энтомофауна сафлора. Ўзбекистон биология журнали. - 2012. - №6. - стр.32-34.
3. Agaseva I.S. et al. Species Composition of Phytophagous and Entomophagous Insects and Mites on Soybeans in Krasnodar and Stavropol Territories, Russia //Agronomy. – 2024. – Т. 14. – №. 7. – С. 1440.
4. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта – М.: Агропромиздат, 1986. – С. 25-110.
5. Рашидов М.И. Интегрированная защита паслёновых овощных культур от вредителей. – Ташкент, 2008. – 190 с.
6. Ченкин А. Ф. Захаренко В.А., Белозерова Г.С. Фитосанитарная диагностика - М.: Колос, 1994. - 323 с.
5. Хо'jaev Sh.T. Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi hamda himoya qilish tizimining asoslari (IV-nashr.). –Toshkent, 2019. –В. 203-208.
6. <http://coi.vikipediya/html>